

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING ICHKI ISHLAR ORGANLARI TAYANCH PUNKTLARI ISHINI TASHKIL ETISH VA MUVOFIQLASHTIRISHNING AMALDAGI HUQUQIY HOLATI

Raximberganov Temurbek O`ktam o`g`li

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta`lim

3-o`quv kursi 309-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqola profilaktika inspektorlarining Ichki ishlar organlari tayanch punktlari ishini tashkil etish va muvofiqlashtirishning amaldagi huquqiy holati tushunchasi, mazmuni va mohiyati, tashkil etishning maqsad va vazifalari, amaliyotda hozirgi kundagi ahvoli va huquqiy jihatdan tartibga solinganligi hamda Ichki ishlar organlari tayanch punktlari negizida hamkorlikni huquqiy ta`minlashni tashkil etilishini va ushbu faoliyatini takomillashtirishga yo`naltirish uchun muammo va takliflar yoritib o`tilgan.

Kalit so`zlar: profilaktika inspektori, profilaktika katta inspektori, tayanch punkti, huquqiy holat, huquqiy ta`minlash, huquqbuzarliklar, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlari tayanch punktlari ishini tashkil etish va muvofiqlashtirishni amaldagi huquqiy holati amaldagi qonunchilik bilan mustahkamlab takomillashtirilgan. Xususan: Yangi tahrirdagi 2023-yil 30-aprel kuni o`tkazilgan O`zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O`zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to`g`risida”gi 16.09.2016 yilda qabul qilingan O`RQ-407-son qonuni. O`zbekiston Respublikasining 14.05.2014-yilda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to`g`risida” gi O`RQ-371-son qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2906-son «Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan ta`minlashga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori qabul qilingan.

O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017 yil 12 iyuldagi 151-sonli buyrug`i asosida “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo`linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to`g`risidagi nizom” qabul qilindi va unga asosan ichki ishlar organlari tayanch punktlari infratuzilmasi takomillashtirilishiga doir bir qator masalalar hal qilindi. Ushbu nizomning 4-§ “Tayanch punktlari va profilaktika inspektorlari faoliyatini tashkil etish” deb nomlandi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021 yildagi Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika (katta) inspektorlarini 2021 — 2023-yillarda xizmat uy-joylari bilan ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida 317-son qarori qabul qilingan.

Qarorga muvofiq, shuningdek, ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlari uchun xizmat uy-joylari jadal qurilishini tashkil etish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi 2021 — 2023-yillarda ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini bevosita ular xizmatni o'taydigan hududda joylashadigan xizmat uy-joylari bilan ta'minlash dasturi muvofiq tasdiqlansin:

jami 2 965 ta, shundan 2021-yilda 993 ta, 2022-yilda 988 ta hamda 2023-yilda 984 ta uy-joyni yangidan qurish;

jami 223 ta, shundan 2021-yilda 80 ta, 2022-yilda 72 ta hamda 2023-yilda 71 ta yangi xonadon xarid qilish;

jami 161 ta, shundan 2021-yilda 63 ta, 2022-yilda 51 ta hamda 2023-yilda 47 ta uy-joyni to'liq ta'mirlash.

2. Belgilab qo'yilsinki, Dastur doirasida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK — xizmat uy-joylarini qurish bo'yicha buyurtmachi hisoblanadi;

xizmat uy-joylari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida" 2016-yil 21-oktabrdagi PQ-2639-son qaroriga muvofiq 0,02 gektar hajmdagi yer uchastkalarida joylashtiriladigan, hovli inshootlariga ega bo'lgan bir qavatli 2 va 3 xonali uy-joylarning namunaviy loyihasi bo'yicha quriladi;

xizmat uy-joylarini qurish, qurishga massivlarni tayyorlash, sug'orish suv quvuri, irrigatsiya tarmoqlari, kirib kelish yo'llari, yo'laklari va tashqi yoritish tarmoqlarini qurishni hisobga olgan holda, ularning hududlarini obodonlashtirish, shuningdek, xizmat uylari uchun yangi xonadonlarni xarid qilish hamda uy-joylarni to'liq ta'mirlash Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjetlari va Toshkent shahri shahar budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi;

qurilish ishlarini amalga oshirish uchun bosh pudratchi va bosh loyihachi tashkilotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tanlov (tender) asosida aniqlanadi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Dasturning ijrosini ta'minlash doirasida:

ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlari uchun bevosita ular xizmatni o'taydigan hududda joylashadigan xizmat uy-joylarini shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq belgilangan muddatlarda sifatli qurilishini ta'minlasin;

shahar joylarda ko'p kvartirali uylardan kvartiralar xarid qilsin yoki mahalliy hokimliklar tomonidan kvartiralar va uy-joylar ajratib, ularni ichki ishlar organlariga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazib bersin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 20-apreldagi PQ-2906-son qarorida 2017 — 2019-yillarda tayyor bino va inshootlarda joylashgan to'liq ta'mirlanmagan 161 ta xizmat uy-joylari to'liq ta'mirlanishini ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

Dasturning ijrosi doirasida qurilgan uy-joy, xarid qilingan yoki mahalliy hokimliklar tomonidan ajratilgan hamda ta'mirlangan kvartira va uy-joylarni belgilangan tartibda qabul qilib olish hamda ularning mazkur hududlarda xizmat faoliyatini olib borayotgan ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika (katta) inspektorlariga birlashtirilishini ta'minlasin;

Dasturning bajarilishini monitoring qilib borgan holda, har yarim yilda uning ijrosi holati yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot taqdim etib borsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi mazkur qaror doirasida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha bajariladigan ishlarning sifati, shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari A.J. Ramatov hamda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov zimmasiga yuklanishi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2017 yildagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5005-son farmoni qabul qilingan. Farmonda "Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; ichki ishlar organlarining moddiy-texnika bazasi, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va uy-joy-maishiy sharoitlarini yanada yaxshilash" haqida alohida topshiriq berib o'tganlar va bu hozirgi kunda ancha o'z samarasini berdi.

XULOSA

"Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 10.04.2017-yildagi PF-5005-sonli prezident farmonida "Ichki ishlar organlari faoliyatida mavjud kamchiliklarni sanab o'tilgan. Ushbu kamchiliklarni yechimi keltirilgan va bu hozirgi kunda ancha o'z samarasini berdi. Muhtaram

prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan yangicha tub islohotlarni, yangicha o`zgarishlarni, tizimimizga joriy etilishi ichki ishlar organlari hodimlarining ish samaradorligini yanada oshiradi. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi O.B. Murodov zimmasiga yuklatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

O`zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi Kodeksi.

O`zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to`g`risida"gi 2016 yil 16 sentyabr qonuni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. T-2016 № 38. – 438-m.

O`zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to`g`risida"gi 2014 yil 14 maydagi qonuni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. T-2014. – № 20. – 221-m.

O`zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to`g`risida» gi 2017 yil 11 sentyabr qonuni (yangi tahriri) // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. T– 2017.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvaridagi "2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to`g`risida"gi PF-60-sonli Farmoni // O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. T-2021.

Internet saytlari:

[http:// akadmvd.uz](http://akadmvd.uz) (O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)

[http:// lex.uz](http://lex.uz) (O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)

[http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) (Axborot ta'lim tarmog`i)

[http:// www.tsul.uz](http://www.tsul.uz) (Toshkent Davlat Yuridik Universiteti)

<https://gazeta.uz/uzc/news/uzbnews>